

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHI

Davletova Rimajon

Ajinyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarining rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi, Jumladan maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning maktabga tayyorgarlik jarayonida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar, haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kichik maktab yoshi, Shaxsiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, o'quv faoliyatiga tayyorgarlik, harakat tayyorgarligi, psixik faollik.*

Kichik maktab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Binobarin ularning psixikasida ham o'zgarishlar sezilarli darajada bo'ladi. Bolaning maktabga kirishi uning hayotida burulish chog'idir. Bola maktabga kirib o'qiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi.

Maktabda bola tizimli ravishda yangiliklar oladi, bu o'quvchilarning kundan kunga orttirib borayotgan hilma-xil mavzudagi bilimlarning manbayidir. Bolaning bilimlarni sistemali tarzda o'zlashtirishi natijasida undagi bilimning doirasi kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi shu bilan bir qatorda bolaning emotsional-irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojlana boshlaydi. Maktabdagi ta'lim jarayonining o'zi bolaning sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuqorida ko'rsatilgan hilma-xil qiziqishlari bilan bir qatorda individual qiziqishlari ham tug'ula boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlikka ko'proq qiziqsalar, ba'zilar musiqa shariyatga muhabbat qo'yadilar. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim ko'nikma va malakalarni egallashga qartilmay, balki o'quvchanlik istagi aks ettirishda ham iboratdir.

Kichik maktab yoshdagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib ular jismoniy, ijtimoiy va psixik, faollikdir. **Jismoniy faollik**-sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishda tabiiy ehtiyojdir. **Psixik faollik**-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

5. Shaxsiy tayyorgarlik-motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi..bilish qiziqishning mavjudligi. ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish-o'quvchi bo'lish;

6. Intellektual tayyorgarlik tevarak-atrofdagi mo'ljal o'qish, bilimlar zahirasi mavjudligi; idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi-narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi.

7. Harakat tayyorgarligi.-mayda motorika; katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l,oyoq,tana);

8. O'quv faoliyatiga tayyorgarlik: kattalarni diqqat bilan eshta olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish. topshiriqlarni mustaqil bajarish; chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Bu davrda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzilikka bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi.

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emosional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrida boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tishi nihoyatda muhimdir.

Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi.

Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Kichik maktab davridan boshlab o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e'tibor beriladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda bo'lish asoslari tarkib topa boshlaydi. Ularda mehnatga havas uyg'onadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar zarur bo'lgan harakat va amallarni darhol o'zlashtirib va egallab ololmaydilar, ko'proq ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, chunonchi: tikish, to'qish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi ish harakatlarni qiynalmasdan va birmuncha silliq bajaradigan bo'lish uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish kerakligini va bu harakatlarning qay yo'sinda amalga oshirilishini aniq bilib olish va esda qoldirish kerak bo'ladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar yo'qolib boradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axlokiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axlokiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga o'rganadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi.

O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir.

Bola faol ravishda o'zini o'zi boshqarishga, qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'zining faoliyatini tashkil etishga o'rganish davridir. Kichik maktab davrida xatti-harakatlarning yangi shakllarini paydo bo'lishi bevosita o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Hech bir o'qituvchi maktabga birinchi bor kelgan boladan o'zi o'rgatmagan arifmetik misol va masalalarni echishni talab etmaydi, lekin afsuski, juda ko'p o'qituvchilar ulardan qunt bilan o'qishni, uyushqoqlikni, ma'suliyatlilikni, tartibga aniq rioya etishni talab etadilar.

Vaholanki, ushbu ko'nikmalar o'qituvchi tomonidan ma'lum odat va malakalarga o'rgatilinganidan so'nggina paydo bo'ladi. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning his-tuyg'ulari ularning faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin bo'lib, bu hislar bolani yaxshi o'qishga ruhlantiradi. Ba'zan past baho olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o'qituvchining noto'g'ri reaksiyasi va kattalarning doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter xislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odamning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Lekin, maktabda o'qish birinchi yiliyoq o'quvchilarda ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diqqatning bu turi B.T. Annoevning yozishicha, «... katta odamlar bilan bolalarning birgalika faoliyati va tarbiyaning maxsuli bo'lib hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o'sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va tafakkurning tarbiyalanishga bog'liqdir». Kichik yoshdagi o'quvchilarning ixtiyoriy diqqati to'g'risidagi masala bilan K.D. Ushenskiy ko'p shug'ullangan. U ba'zi pedagoglarning, kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqatning afzalligiga tayangan holda maktabdagi barcha o'qish jarayonining faqat qiziqarli va maroqli qilib tashkil etish kerak degan fikrlarga qo'shilmagan. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta. Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha yangi shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar xotirasining o'sishida ikkinchi xususiyat o'quvchilarda abstrak tafakkurning o'sishi munosabati bilan bog'liq bo'lgan katta uzgarishlardan iborat. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va engil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, changida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, engil va

chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pogonasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim.

Shunday qilib, kichik maktab yoshi 7-12 yoshli bolalarni o'z ichiga oladi. Bu davrda o'qish yetakchi faoliyatga aylanadi, o'qituvchining so'zi bola uchun senzitiv hisoblanadi. Intelktual refleksiya bu davrda paydo bo'lgan yangi psixologik tuzilmadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqola orqali siz o'zingizga ma'naviy ozuqa olishingizga shubha qilmaymiz. Maqola orqali siz bolaning maktabga kirishi, ya'ni hayotidagi burulish chog'idagi asosiy faoliyati psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Ushbu maqola orqali kichik maktab yoshidagi bolarning psixologik, fizalogik, va individual qiziqishlari borasidagi bilimlaringizni mustahkamlasangiz bu bizning yutug'imiz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova <<Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya>> Toshkent-2019
2. SH.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, SH.K.Karimova, SH.T.Alimbaev a <<Yosh davrlar va pedagogik psixalogiya>> Toshkent-2013
3. M.X.Xolnazarovna, M,Q, Muhliboyev <<Yosh va pedagogik psixologiya>> Toshkent-2014.